

CHO'LPON ASARLARINING TILI VA USLUBI

Muzaffarova Durdona Nasriddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Muratova Nafisa Baxtiyarovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek tili kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XX asrning porloq yulduzi bo'lgan Cho'lpon asarlarining tili hozirgi o'zbek adabiy tiliga solishtirib qilingan. Maqolada Cho'lponning XX asrga oid so'zlardan qanday foydalangani haqida ham bilib olasiz.*

Kalit so'zlar: *adabiy til, morfologik xususiyat, fonetik o'zgarish, ruscha so'zlar. The Language And Style Of Cholpon's Works*

Abstract: *In this article, the language of the works of Cholpon, a shining star of the 20th century, is compared with the current Uzbek literary language. In the article, you will also learn about how Cholpon used words from the 20th century.*

Key words: *literary language, morphological feature, phonetic change, Russian words.*

O'zbek adabiyoti tarixida o'zining yuksak badiiy mahorati bilan yozilgan roman, drama, flyeton, hikoya va adabiy lavhalari bilan xalqimiz qalbiga kira olgan Cho'lpon o'zbek adabiyoti va o'zbek adabiy tili ravnaqiga katta hissa qo'shdi.

Cho'lpon 16 yoshdan ijod qila boshlaydi. Uning she'rlari, hikoya va felyetonlari o'sha yillari "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" kabi gazetalarda bosilib turgan. U adabiyotni yangi obrazlar, yangi mavzu va shakllar bilan boyitdi. Adabiyot, san'at, xalq maorifi hamda shu davrdagi o'zbek adabiy tilini rivojlantirish yo'lida talay ishlarni amalga oshirdi.

Cho'lpon nomini o'zbek adabiyotiga tanitgan mashhur asarlari "Kecha va kunduz" romani, "Yorqinoy" dramasi va ko'plab maqolalaridir. Adib bu asarlarida o'sha davr hayotini jonli va ta'sirli hikoya qilib beradi.

Shunday qilib, Cho'lpon o'zbek xalqi tarixi, urf-odatlarini, ruhiyati va turmush sharoitlariga uzviy bog'langan g'oyat boy, ifodali, hayotimiz ko'zgusi bo'lgan o'zbek jonli so'zlashuv tilidan keng foydalanib yozilgan yirik nasriy asarlari bilan o'zbek adabiy tili tarixiy taraqqiyotiga muhim hissa qo'shdi.

Cho'lpon asarlarida quyidagi morfologik, fonetik va leksik xususiyatlarni uchratishimiz mumkin. Fonetik xususiyatlari: "i" tovushi o'rnida ko'pincha "u" tovushini qo'llanishini uchratamiz. Masalan: yolg'uz –yolg'iz, xotun –xotin, o'turgandi –o'tirgandi kabilar. Ba'zi o'rinlarda "i" tovushi bilan boshlangan affikslar ham "u" tovushiga o'tganligini kuzatamiz: bo'lub –bo'lib, qilub –qilib, qo'rushmoq –ko'rishmoq, o'qutmak –o'qitmoq, kirg'uzmasdan –kirg'izmasdan, yo'luqdi –yo'liqdi, bilmaydurlar –bilmaydilar, turolsun –turolsin.

Morfologik xususiyatlari: Cho'lpon asarlari tilida ham oltita kelishik shakllari mavjud. Tushum kelishigi qo'shimchasi -ni dan tashqari -n, -in shakllari ham ko'p qo'llangan.

Masalan: Biri boraturg'on istansasin bilmay, boshqa istansag'a bilet olub –qo'yg'on... (Biri boradigan stansiyasini bilmay, boshqa stansiyaga bilet olib qo'ygan).

Qaratqich kelishigi qo'shimchasi –ning bilan birgalikda -im shakli ham faol ishlatilgan. Masalan: Menim bisotimda shul birgina o'g'lim bor... (Mening bisotimda shu birgina o'g'lim bor). Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi –ga, -g'a, -na tarzida uchraydi. Masalan: nimaga, o'qiturg'a, ustina, millatina. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi bilan o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi bir-birining o'rnida qo'llangan. Masalan: Siz qayda borasiz? (Siz qayerga borasiz?)

Harakat nomi shakli –mak affiksi bilan ifodalangan. Sifatdosh esa -g'uchi, -g'on, -g'an, -kan, -qan, -qon, -gan, -ayotqon affikslari bilan, ravishdosh –g'acha, -b(-ub), -g'ach, -guncha affikslari orqali ifodalangan. Masalan: suylamak, yig'lag'uchi, bo'lg'on, ko'rg'an, o'tkan, aytqan, yotqon, borgan, choqq'acha, chiqq'ach kabi.

Cho'lpon asarlarida to'quz, sakiz, o'tuz, milio'n kabi sonlar, mundog', shundog', qandog', shul, ul, anga, ani, aning kabi olmoshlar qo'llangan.

Bilan bog'lovchisi va so'ng ko'makchisining –la, ila, bila, birla, bilan kabi variantlarda ishlatilishini ko'ramiz. Masalan: Aning hojilig'ining bosh sababi 15 yashar ekan vaqtida otasi ila hajga borgan edi.

Leksik xususiyatlari: Cho'lpon asarlarida rus tilining ta'siri kuchli bo'lgan. Cho'lpon ijtimoiy hayot, fan, madaniyat, iqtisodiy turmush sohalarida paydo bo'lgan yangi tushunchalarni ifodalovchi ruscha so'zlarni so'zlashuv nutqida qanday talaffuz qilinsa, shundayligicha asarlariga olib kirgan. Masalan: vagzal (vokzal), istansa (stansiya), balqo'n (balkon), gazita (gazeta), iskamiya (skameyka), rayosat (raislik), istraxavayt (straxovaniye), kartina, (kinofilm), zuvano'k (zvonok), paraxo'd (paroxod), tiatr (teatr), zakun (zakon), do'qtur (doktor) va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cho'lpon "Qor qo'ynida lola" hikoyalar. Toshkent: "Ziyo nashr", 2019.
2. Cho'lpon "Do'xtur Muhammdiyor" hikoyasi.
3. Cho 'lpon "Oydin kechalarda" hikoyasi.
4. R.Sayfullayeva, B.Menliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslik. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2010.
5. www.ziyouz.com internet kutubxonasi.
6. МУСТАЕВ, Р. Д., УБАЙДУЛЛАЕВ, С. С., & Носирхонзода, А. Н. РОЛЬ СЕМЬИ, ОБЩИНЫ И ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ДУХА У МОЛОДЕЖИ. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 71.
7. МУСТАЕВ, Р., ХАСАНОВ, Н., УБАЙДУЛЛАЕВ, С., & АЛИНАЗАРОВ, Н. В ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОМ ДУХЕ. МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО" Издательство Молодой ученый", (2), 458-459.

8. Мустаев, Р. Д., Хасанов, Н. Х., Убайдуллаев, С. С., & Алиназаров, Н. Н. (2023). ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОЕННЫХ КОМИТЕТОВ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Мировая наука*, (1 (70)), 115-119.
9. Мустаев, Р. Д. (2023). ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЗГЛЯДОВ НА ПАТРИОТИЗМ ВО ВЗГЛЯДАХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЭПОХИ ТЕМУРИДОВ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 252-262.
10. Damirovich, M. R., Nurmuhammad, X., Saydaliyevich, U. S., & Nosirxonzoda, A. N. (2022). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI. *PEDAGOG*, 1(4), 1411-1414.
11. Мустаев Р.Д. ИЗУЧЕНИЕ РЕЛЬЕФА МЕСТНОСТИ ПО КАРТЕ. *ЎЗБОК О'ҚИТУВЧИ*. 2022 Nov 26;2(24):100-21.
12. Мустаев, Р. Д., & Юсупов, Ш. Б. (2022). ТОПОГРАФИК ХАРИТА ҲАҚИДА ТУШУНЧА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 900-904.
13. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). POSITIONING NAVIGATION FROM SATELLITES TARGETING WITH TOOLS. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 978-983.
14. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). JOY TURLARI VA ULARNING TAKTIK XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(3), 1027-1032.
15. Мустаев, Р. Д. (2022). ИЗМЕРЕНИЕ УГЛОВ И РАССТОЯНИЙ НА МЕСТНОСТИ БЕЗ КАРТЫ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(10), 79-83.
16. Alimov, S. S., & Yusupova, O. M. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF BORROWINGS FROM ENGLISH TO UZBEK LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 1-4.
17. Mamadjanova, M. U. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG 'ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(5), 110-115.